

XORIJ MAMLAKATLARI JINOYAT-IJROIYA TIZIMIDA JAZONI AMALGA OSHIRISH PRINSIPLARINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI



Rixsimov Komron Abrorovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlar jinoyat-ijroiya qonunchiligida jazoni ijro etishda tatbiq qilinadigan asosiy prinsiplar qiyosiy tahlil qilingan. Turli davlatlarning qonun hujjatlari misolida qonuniylik, insonparvarlik, demokratizm, differentsiatsiya va individuallashtirish, qonun oldida tenglik, majburlov vositalarini oqilona qo'llash, jazoning axloq tuzatish vositalari bilan uyg'unligi kabi prinsiplarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat-ijroiya qonunchiligi, jazoni ijro etish, prinsiplar, qonuniylik, insonparvarlik, individuallashtirish, differentsiatsiya, qonun oldida tenglik, majburlov vositalari, axloq tuzatish vositalari.

Аннотация. В настоящей статье проведён сравнительный анализ основных принципов исполнения наказаний, применяемых в уголовно-исполнительном законодательстве зарубежных государств. На примере нормативных правовых актов различных стран раскрыты схожие и различные особенности таких принципов, как законность, гуманизм, демократизм, дифференциация и индивидуализация исполнения наказаний, равенство перед законом, рациональное применение мер принуждения, а также сочетание наказания со средствами морального исправления осуждённых.

Ключевые слова: уголовно-исполнительное законодательство, исполнение наказаний, принципы, законность, гуманизм, индивидуализация, дифференциация, равенство перед законом, меры принуждения, средства морального исправления.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the fundamental principles applied in the execution of punishments within the criminal-executive legislation of foreign countries. Based on the legal frameworks of various states, the study examines the similarities and differences of key principles such as legality, humanism, democracy, differentiation and individualization of punishment execution, equality before the law, rational application of coercive measures, and the coherence of punishment with moral correction tools.

Keywords: criminal-executive legislation, execution of punishments, principles, legality, humanism, individualization, differentiation, equality before the law, coercive measures, moral correction tools.

Jazoni ijro etish tizimi har bir davlatning huquqiy siyosatini ifodalovchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. Uning to'g'ri va samarali faoliyat yuritishi esa, avvalo, jazoni ijro etishda amal qilinishi shart bo'lgan prinsiplarning qanday belgilangani va ular qanchalik izchil qo'llanilishiga bog'liq.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat-ijroiya qonunchiligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli huquq

tizimlarida jazoni ijro etishda umumiy o'xshash prinsiplar mavjud bo'lsa-da, ularning mazmun-mohiyati, qo'llanish mexanizmi va milliy huquqiy an'analar bilan uyg'unlashuvida muayyan farqlar kuzatiladi.

Xalqaro me'yorlarda bu prinsiplar milliy qonunchilikka nisbatan ancha keng qamrovli tarzda bayon etilgan, zero milliy qonunlarda ular faqat qonunchilik jarayonidan o'tgach amal qila boshlaydi.

Huquqiy prinsiplar umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanganligi BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda (1966-yil) namoyon bo'ladi.

Jinoyat-ijroiya huquqi tizimidagi prinsiplar mahkumlarga nisbatan muomala qilish tartibini belgilab, bir qator xalqaro hujjatlar orqali yanada mustahkamlangan.

Jumladan, har qanday shaklda saqlanayotgan shaxslarni himoya qilish prinsiplari to'plami (BMT 1989-yil), Qiynoq va inson qadr-qimmatini kamситuvchi jazolash usullariga qarshi deklaratsiya (1984-yil), Qiynoq va shafqatsiz muomala qilishning oldini olish bo'yicha Yevropa konvensiyasi (1987-yil) va boshqa hujjatlarda aksni topgan.

Shuningdek, ozodlikdan mahrum etish prinsiplari quyidagi maxsus standartlar orqali ham tartibga solinadi:

Qiynoqlarga qarshi konvensiya;

Mahkumlarga muomala qilishning minimal standart qoidalari (1955 va 1977);

BMTning qo'lga olingan yoki qamoqqa olingan shaxslar huquqlari to'g'risidagi hujjatlari;

Yevropa penitensiar qoidalari (2006) va boshqalar [1].

Xorijiy mamlakatlar jinoyat-ijroiya qonunchiligini tahlil qilganda bir qator davlatlarda jazoni ijro etishda tatbiq etiladigan prinsiplar bir xil ekanligini ko'rish mumkin.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Belarus Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodekslarida jazoni ijro etishda tatbiq qilinadigan prinsiplar deyarli farq qilmaydi.

Kodekslar normalari (Rossiya Federatsiyasi JIKning 8-moddasi, Belarus Respublikasi JIKning 6-moddasi, Qirg'iziston Respublikasi JIKning 2-moddasi, Turkmaniston Respublikasi JIKning 3-moddasi) tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur mamlakatlarda jazoni ijro etish faoliyati quyidagi umumiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi: qonuniylik, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash, mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish, qonun oldida tenglik, jazoning axloq tuzatish vositalari bilan uyg'unligi prinsiplari.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksda, mazkur davlatlar qonunchiligi bilan qiyoslaganda, qo'shimcha ravishda adolat prinsipi mavjudligini ko'rish mumkin.

Lekin bu degani mazkur davlatlarda jinoyat-ijroiya qonunchiligi adolat prinsipiga rioya qilmaydi degani emas, albatta. Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Belarus Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodekslarida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida mavjud bo'lmagan ikki prinsip: qonun oldida tenglik prinsipi (umumiy prinsip) va jazoning axloq tuzatish vositalari bilan uyg'unligi prinsipi (maxsus prinsip) mavjud.

Qozog'iston Respublikasi JIKda jazoni ijro etishda tatbiq qilinadigan prinsiplar sifatida quyidagi prinsiplar belgilangan: qonuniylik, insonparvarlik, demokratizm, oshkorlik, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish, qonun oldida tenglik, jazoning axloq tuzatish vositalari bilan uyg'unligi prinsiplari [2].

Yaponiya JIKda jazoni ijro etishda tatbiq qilinadigan prinsiplar sifatida quyidagi prinsiplar belgilangan: adolat, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash, mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish prinsiplari [3].

Xorij mamlakatlari jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari prinsiplarini o'rganish jarayonida ayrim davlatlarda jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari prinsiplari boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi ma'lum bo'ldi.

Jumladan, Fransiyada jazoni ijro etishda tatbiq qilinadigan prinsiplar Fransiya JPK bilan tartibga solinadi. Fransiyada jazoni ijro etishda quyidagi prinsiplar tatbiq qilinadi: insonparvarlik, majburlov vositalarini oqilona qo'llash, mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish prinsiplari [4].

Shveysariyada jinoyat-ijroiya qonunchiligi prinsiplari Jinoyat kodeksi prinsiplari bilan tartibga solinadi. Shveysariya Jinoyat kodeksiga muvofiq, jazoni ijro etishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi: qonuniylik, adolat, insonparvarlik, jazoni ijro etishda individualizatsiya, majburlov vositalarini oqilona qo'llash [5].

Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat-ijroiya qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi JIKda uchra-

maydigan bir qator prinsiplar mavjud. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Ukraina, Moldova, Latviya, Gruziya, AQSH jinoyat-ijroiya qonunchiligida qonun oldida tenglik prinsipi uchraydi.

Mazkur prinsip jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy prinsipi sifatida baholanadi. Eng ko'p jazoning axloq tuzatish vositalari bilan uyg'unligi prinsipi hisoblanadi.

Mazkur prinsip Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Ukraina Respublikalari jinoyat-ijroiya qonunchiligida uchraydi.

Qozog'iston jinoyat-ijroiya qonunchiligida oshkoralik;

Ukrainada jazoning o'talishi va ijro etilishining muqarrarliligi, davlat va mahkum javobgarligining uyg'unligi;

Moldovada jazoni ijro etish funksiyalarining surishtiruv, tergov, davlat ayblovi funksiyalaridan xoliligi;

Finlyandiyada retsidivizmni kamaytirish, jazoni ijro etish tizimining xavfsizligini ta'minlash;

Germaniyada mahkumlarni axloqan tuzatish prinsiplari mavjud.

Mazkur prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida keltirilmagan.

Turli davlatlarda jazoni ijro etishda tatbiq etiladigan prinsiplar bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari ham mavjud.

Ayrim prinsiplar faqat bitta davlatda uchraydi. Masalan, retsidivizmni kamaytirish (Finlyandiya), oshkoralik (Qozog'iston) yoki jazoni ijro etish funksiyalarining surishtiruv, tergov, davlat ayblovi funksiyalaridan xoliligi (Ukraina) kabi prinsiplar faqat bir davlat qonunchiligida mavjud, boshqa davlatlar qonunchiligida mazkur prinsiplar uchramaydi.

Shveysariya va Gruziya jinoyat-ijroiya qonunchiligida jazolarni ijro etishda individualizatsiya prinsipi uchraydi. Mazkur davlatlar qonunchiligida jazolarni ijro etishda differentsiatsiya prinsipi uchramaydi.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish prinsiplari ekanligini inobatga olib, xorij mamlakatlarida mazkur prinsiplarga rioya etilish yondashuviga ham to'xtalib o'tsak.

Voyaga yetmaganlarga individual yondashuvning yorqin misolini Germaniya qonunchiligida ko'rish mumkin. Germaniyada voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan jazoni ijro etish bo'yicha alohida maxsus kodekslashtirilgan qonun mavjud.

Mazkur Qonun voyaga yetmaganlar uchun maslahat kengashiga bag'ishlangan. Ushbu kengash tarbiya koloniyasidagi voyaga yetmagan mahkum bilan individual shug'ullanadi, huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda ko'maklashadi (Jinoyat-ijroiya qonunchiligining tarbiyaviy funksiyasi).

Latviyada jazoni ijro etish koloniyalarida mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi tashkilot mavjud bo'lib, bu Latviya JIKning 57-59-moddalarida o'z ifodasini topgan. Mazkur tashkilot har bir mahkum bilan alohida shug'ullanib, uni axloqan tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda individualizatsiya prinsipini hamda jinoiy jazoni ijro etish tizimining tarbiyaviy funksiyasini ko'rish mumkin.

Germaniyada mahkumlarning sog'lig'i bilan individual shug'ullaniladi. Germaniya JIKning 57-§ da 35 yoshdan o'tgan mahkumlar ikki yilda bir marta to'liq tibbiy tekshiruvdan o'tqazilishi belgilangan. Shuningdek, 66-§ ga muvofiq, mahkum og'ir kasal bo'lsa, uning oila a'zolari yoki yaqinlariga zudlik bilan xabar qilinadi.

Latviyada mahkum bilan individual shug'ullanish nafaqat JIEMda, shuningdek u ozodlikka chiqqanidan keyin ham (agar vaziyat shuni taqozo etsa) shug'ullaniladi. Latviyada zarurat tug'ilganda JIEMdan ozod etilgan shaxslar yashash joyi bilan ta'minlanadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 171-moddasiga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida ish va yashash joyiga muhtoj shaxslar aniqlangan taqdirda, muassasa ma'muriyati mahkum doimiy ro'yxatda turgan hududning ijtimoiy moslashuv markaziga uning ozod qilinishi, turar joyi bor-yo'qligi, mehnat qobiliyati va ixtisosligi to'g'risida mahkum ozod etilishiga 3 oy qolganda xabarnoma yuboradi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida mazkur prinsiplarning asosiy qismi aks etgan bo'lsa-da, ayrim xorijiy davlatlar tajribasida mavjud

bo'lgan prinsip va mexanizmlar milliy qonunchiligimiz uchun ham dolzarbdir.

Jumladan, jazoning ijro etilishida oshkoralikni kuchaytirish, mahkumlarni ijtimoiy moslashuviga doir mexanizmlarni yanada aniqlashtirish, jazoni ijro etish funksiyalarining mustaqilligini ta'minlash kabi yo'nalishlar milliy qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlar tajribasining o'rganilishi jinoyat-ijroiya tizimini rivojlantirish, jazo ijrosining samaradorligini oshirish va qayta jinoyatlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro prinsiplar va ilg'or tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirgan holda joriy etish esa insonparvar, samarali va mustahkam jinoyat-ijroiya siyosatiga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Дмитраков Ю.В. Система международных стандартов в сфере исполнения наказаний как источники принципов исполнения лишения свободы. – Москва, 2011. – С. 84–87.
2. Уголовно-исполнительный кодекс Республики Казахстан. – 5 июля 2014 года № 234-V ЗРК. – Статья 5.
3. Article 3 Act on Penal Detention Facilities and Treatment of Inmates and Detainees of Japan.
4. Le code de procedure France. Article 38, 129, 287.
5. Уголовный кодекс Швейцарии от 1937 г. (по состоянию на 2020 г.), Швейцария – С. 2-8.
6. <http://www.pravo.lv> / Кодекс Латвии об исполнении наказаний. Статья 119.

